
Sud - huquq tizimidagi o'zgarishlar- adolatni taminlashdagi asosiy ustundir

So'nggi yillarda keng qamrovli demokratik islohotlar natijasida jadal rivojlanayotgan yangi O'zbekistonning xalqaro obro'si va nufuzi yuksalib bormoqda. Har bir sohada adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash, inson qadrini yuksaltirish, uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, sud tizimida odillik va shaffoflik mezonlarini yanada mustahkamlash - amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan eng asosiy maqsadlardan sanaladi. *Shuningdek, mamlakatimizda olib borilayotgan har bir islohotning jamiyatda samarali olib borilishiga qaratilgan faoliyatni to'g'ri tashkil etish bo'yicha fikr-mulohaza yuritilgan. Bu yo'nalishning dolzarbligi XXI asr boshlarida mamlakat hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va boshqa jabhalarida yuz bergan o'zgarishlar, davlat va huquqning mohiyatiga oid yangicha qarashlarning paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Mustaqil va kuchli sud hokimiyati inson huquqlari, demokratiya va qonuniylikni qaror toptirishning asosiy shartidir".* Mustaqillik yillarida yurtimizda sud tizimini liberallashtirish va insonparvarlashtirishga qaratilgan tub islohotlar, o'lim jazosini bekor qilish, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, "xabeas korpus" institutini joriy qilish, advokatura ro'lini oshirish sohalarida muhim qadamlar qo'yildi.

So'nggi yillarda sudlarning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash yo'lida muhim qadamlar qo'yildi. Sud va sudyalarning faoliyatining turli sohalarida yechimini kutayotgan bir qator muammolar bo'lib, bu muammolar soha ekspertlari tomonidan o'rganildi va ularni hal etish bo'yicha muayyan amaliy takliflar ishlab chiqildi. Inson huquq va erkinliklarini ustivor ekanligini tasdiqlovchi yana bir norma qo'shimcha tergovning bekor qilinishi bo'lib hisoblanadi. Bu qoida konstitutsiyaviy norma - aybsizlik prezumpsiyasining mantiqiy rivojlanishi bo'lib, tortishuv va taraflar tengligi, haqiqatni anglash prinsiplari real ta'minlanishiga kafolat beradi.

Fuqarolarning huquq va erkinliklari institutining ishonchli kafolat etuvchi munosabatlardan yana biri bu albatta mediatsiya -yarashtirish institutini takomillashtirishdir. Jismoniy va yuridik shaxslarga o'zaro nizolarni suddan tashqarida, muqobil hal etish imkonining berilishi, avvalambor, fuqarolarga nizolarni qisqa muddatlarda yechilishini, shuningdek, ortiqcha mablag'larning sarflanishiga chek qo'yilishini, turli ovoragarchiliklarni oldini olinishi kabi imkoniyatlarni beradi. Bu vaziyatdan kutiladigan natija esa, taraflar orasidagi o'zaro hurmat va ishbilarmonlik munosabatlarini saqlanib qolinishi bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar sudyalaringizni qonun ustuvorligini ta'minlashda tinmasdan izlanishiga, tajribalarini boyitib borishiga, kasbining sharafli yo'lida hech qachon charchamasliklari, sudya degan ulug' nomga dog' tushirmaslik uchun o'z xalqiga, davlati tomonidan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga sadoqatli bo'lish ham qarz, ham farzdir.

Sud tomonidan ko'riladigan va yakuniy hal qiluv qarorini chiqarish uchun asos bo'ladigan qonun hujjatlarini o'zgarishi, ya'ni u xoh texnik o'zgarish bo'lsin, xoh normaning o'zgarishi bo'lsin bu faktorlar ham sud tomonidan ishni ko'rishga va sud hujjatlarni chiqarishda muhim ro'l o'ynaydi. Misol qilib so'nggi o'zgarishlarni ko'rib tahlil qilib o'tamiz. Bu orqali sud tomonidan ko'riladigan ishlarga oid qonun hujjatlarining o'zgarishining sudga ta'siri va oldingi tahriri bilan farqini ko'rishimiz mumkin. Misol sifatida **2023-yil 11-aprel kuni** O'zbekiston Respublikasining **829-sonli** qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi haqida bayon qilinadi. Kodeksning **41¹-modda, 47⁴-modda,**

47⁵-modda, 47⁷-moddalarining sanksiya qismiga bir qator o'zgartirish kiritilganini ko'rish mumkin. Ushbu moddalardagi o'zgarishlar quyodagilardir: «o'n besh sutka muddatga ma'muriy qamoqqa olishga yoki bir yuz yigirma soatgacha haq to'lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etishga yoxud ushbu Kodeksga muvofiq ma'muriy jazolarning mazkur turlari qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi».

Bu bo'layotgan o'zgarish yaqqol sud tizimiga berilgan ishonch deyishimiz mumkin. Sud tizimida deskiritsion vakolatning ko'payishi, jazoning miqdorini belgilash bo'yicha vakolatning berilishi sudning adolatli sud hujjatlarini chiqarishida asosiy ro'l o'ynaydi. Har bir fuqaro, javobgar, sudlanuvchining holati, motiv va maqsadi va boshqa faktorlarni hisobga olgan holda, bir turdagi qilmishning obyektivi, obyektiv tomonlari bir xil bo'lsa ham javobgarning holati, jazoning o'tashga bo'lgan sharoit va vaziyatiga qarab, sud tomonidan sanksiya qismini qo'llash turli xil qo'llashi mumkin. Qonundagi bu kabi o'zgarishlar sud tizimiga berilayotgan ishonchdir.

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda Yangi O'zbekistonning yangi qiyofasi puxta o'ylangan, aniq madsadli va strategik islohotlar natijasida jahon maydonida o'z munosib o'rniga ega bo'layotgan davlatlar qatoridadir. Ishonamizki, Yangi O'zbekiston jahon maydonida har qachon ham har tomonlama kuch-qudratli, salohiyatli va tinch - farovon mamlakatga aylanadi. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan ushbu jarayonlar Prezidentimizning tashabbusi bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarning yorqin ifodasidir.

Foziljon Xatamkulov

Fuqarolik ishlari bo'yicha O'zbekiston tumanlararo sudining sudyasi

2023-05-30 15:10:59